

## BUXORO VILOYATI TASHQI SAVDO AYLANMASI


2026- yil yanvar-fevral oyi uchun dastlabki ma'lumot

- I. Tashqi savdo aylanmasi
- II. Eksport hajmi
- III. Import hajmi
- IV. Metama'lumotlar
- V. Aloqador boshqa havolalar

### I. TASHQI SAVDO AYLANMASI

2026- yil yanvar-fevral oyida viloyatning tashqi savdo aylanmasi (matnda TSA) 257,2 mln. AQSH dollariga yetdi va 2025- yilning yanvar-fevral oyiga nisbatan 23,6 mln. AQSH dollariga yoki 10,1 % ga ko'paydi.

Tashqi savdo aylanmasi (mln. AQSH dollari)



TSAda eksport hajmi 64,5 mln. AQSH dollariga (2025-yilning yanvar-fevral oyiga nisbatan 33,0 % ga ko'paydi) va import hajmi 192,7 mln. AQSH dollariga (4,1 % ga ko'paydi)

yetdi. Hisobot davrida – 128,2 mln. AQSH dollari qiymatida manfiy tashqi savdo balansi qayd etildi.

1.1- jadval

**Buxoro viloyatining yirik hamkor davlatlar  
bilan tashqi savdo aylanmasi dinamikasi (mln. AQSH dollari)**

Davlatlar	2024y.	2025y.	2026y.
Rossiya	59,8	90,5	99,3
XXR	52,3	50,2	41,1
Afgoniston	3,2	12,3	26,8
Turkmaniston	31,9	12,7	18,6
Eron	8,1	9,6	14,7
BAA	0,7	1,3	13,7
Qozog'iston	6,6	9,1	7,4
Gonkong	0,2	0,2	5,9
Turkiya	13,4	10,7	4,9
Tojikiston	1,3	3,9	4,0
Qirgiz Respublikasi	2,4	4,2	3,6
Germaniya	9,6	5,5	3,3
AQSH	0,3	2,4	2,2
Hindiston	1,8	4,3	1,9
Polsha	1,1	1,4	1,2
Belarus	0,5	2,1	0,9
Ukraina	0,4	0,4	0,6
Ozarbayjon	0,4	0,3	0,6
Koreya Respublikasi	1,2	0,9	0,5
Iroq	0,1	1,0	0,4

Buxoro viloyati 67 ta mamlakatlar bilan savdo aloqalarini amalga oshirib kelmoqda. TSAning nisbatan salmoqli hissasi Rossiyada (38,6%), XXR da (16,0%), Afg'onistonda (10,4%) Turkmanistonda (7,2%) va Eronda (5,7%), qayd etilgan.

**II. BUXORO VILOYATINING EKSPORTI TARKIBI**


2.1- jadval

Tarkibi	Mln. AQSH dollari		O'zgarish sur'ati, % da		Umumiy hajmga nisbatan, % da	
	2025- y.	2026- y.	2025- y.	2026- y.	2025- y.	2026- y.
<b>Jami eksport</b>	<b>48,5</b>	<b>64,5</b>	<b>123,2</b>	<b>133,0</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	2,7	4,7	165,8	174,7	5,5	7,2
Ichimliklar va tamaki	0,4	0,4	83,4	113,6	0,8	0,7
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	1,8	1,2	94,6	67,6	3,7	1,9
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	11,9	20,9	3,4 m.	175,9	24,5	32,4
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	-	2,1	-	-	-	3,2
Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar	0,6	0,7	98,2	121,1	1,2	1,1
Sanoat tovarlari	19,4	16,7	76,5	86,0	40,0	25,8
Mashinalar va transport asbob-uskunolari	5,1	7,6	50,0 m.	149,1	10,6	11,8
Turli xil tayyor buyumlar	3,7	5,9	132,8	153,9	7,7	9,2
Xizmatlar	2,9	4,3	106,0	148,6	6,0	6,7

Mavzugadoirhavola: [Eksport tarkibi \(XSST-2008\) \(oylik\)](#)

Eksport tarkibida tovarlar ulushi 93,3 % ni tashkil etib, asosiy ulush sanoat tovarlari (25,8 %), mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar (32,4 %), oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (7,2 %) va mashinalar va transport asbob-uskunalari (11,8 %) hissasiga to'g'ri kelmoqda.


### **Buxoro viloyatining yirik eksportyor hamkor davlatlari** (mln.AQSHdollari)



Mavzuga doir havola: [Eksport hajmi \(mamlakatlar kesimida, oylik\)](#)

2026-yil yanvar-fevral oyida tashqi savdo aylanmasida tovarlar va xizmatlar eksporti bo'yicha asosiy hamkorlarimiz Afg'oniston (41,2 %), Rossiya (31,2 %), Tojikiston (5,7 %), Qozog'iston (4,0 %), Qirg'iz Respublikasi (2,8 %), Germaniya (2,1 %), Turkmaniston (1,8 %), AQSH (1,4 %), Polsha (1,3 %) va XXR (1,2 %) kabi davlatlar bo'lgan. Ularning umumiy eksportdagi ulushi 92,7 % ni tashkil etdi.

### **Xizmatlar eksporti tarkibi (mln. AQSH doll.)**



Mavzuga doir havola : [Xizmatlar eksporti \(xizmatlar turi bo'yicha, oylik\)](#)

Xizmatlar eksporti hajmi 4,3 mln. AQSH dollarini yoki jami eksport hajmining 6,7 % ini tashkil etib, 2025- yilning mos davriga nisbatan 48,6 % ga ko'paydi. Xizmatlar eksporti tarkibining asosiy ulushi transport (16,3 %), safarlar (turizm) (18,6 %), telekommunikatsiya, kompyuter va axborot (20,9 %) va boshqa tadbirkorlik bilan bog'liq xizmatlar (44,2 %) hissasiga to'g'ri kelgan.

### **III. BUXORO VILOYATINING IMPORTI**

2026-yilning yanvar-fevral oyida import hajmi 192,7 mln. AQSH dollariga yetdi va 2025-yilning mos davriga nisbatan 4,1 % ga ko'paydi. Import tarkibida eng kata ulush, Mineral yoqilg'i, yog'lash

moylari va shunga o'xshash materiallar (23,8%), Mashinalar va transport asbob-uskunalari (16,7%), sanoat tovarlari (11,8%) hamda kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar (37,8%) hisobiga to'g'ri keldi.

### Buxoro viloyatining importi tarkibi


3.1- jadval

XSST tarkibi	Mln. AQSH dollari		O'sish sur'ati, % da		Umumiy hajmga nisbatan. % da	
	2025-y.	2026-y.	2025-y.	2026-y.	2025-y.	2026-y.
<b>Jami import</b>	<b>185,1</b>	<b>192,7</b>	<b>113,9</b>	<b>104,1</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
Oziq-ovqatmahsulotlarivatihayvonlar	5,0	5,0	2,4 m.	100,8	2,7	2,6
Ichimliklarvatamaki	0,1	0,2	5,0 m.	194,1	0,1	0,1
Nooziq-ovqatxomashyo, yoqilg'idantashqari	2,5	3,0	142,2	122,1	1,3	1,6
Mineral yoqilg'i, yog'lashmoylarivashungao'xshashmateriallar	61,2	45,9	83,0	75,0	33,1	23,8
Hayvonvao'simliklarmoylari (yog'lari), yog'larvamumlar	-	0,3	29,1	10,4 m.	-	0,1
Kimyoviyvositalarvashungao'xshashmahsulotlar	17,8	72,9	2,1 m.	4,1 m.	9,6	37,8
Sanoattovarlari	26,8	22,7	3,8 m.	84,7	14,5	11,8
Mashinalarva transport asbob-uskunalari	54,1	32,2	100,5	59,6	29,2	16,7
Turli xil tayyor buyumlar	17,6	10,4	114,2	58,9	9,5	5,4
Boshqatovlarlar	-	-	-	-	-	-
Xizmatlar	-	0,1	-	-	-	0,1

Mavzuga doir havola: [Import tarkibi \(XSST-2008\) \(oylik\)](#)

Tovarlar importi dinamikasi tahliliga ko'ra, 2026-yilning yanvar-fevral oyida import qilingan tovarlar hajmi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 7,6 mln. AQSH dollariga ko'paydi va 192,7 mln. AQSH dollarini tashkil etdi.

### Buxoro viloyatining yirik importyor hamkor davlatlari (mln. AQSH dollari)



2026-yil yanvar-fevral oyida Buxoro viloyati 66 ta davlatdan tovar va xizmatlar importini amalga oshirdi. Yirik hamkor davlatlar Rossiya (41,1%), XXR (20,9%), Turkmaniston (9,0%), Eron (7,6%), BAA (7,1%), Gonkong (3,1%), Qozog'iston (2,5%), Turkiya (2,3%) va Germaniya (1,0%) jami importning 94,6% ni tashkiletdi.

**Mavzuga doir havola:** [Xizmatlar importi \(xizmatlar turi bo'yicha, oylik\)](#)

Xizmatlar importi tarkibining asosiy ulushi tadbirkorlik bilan bog'liq xizmatlar (100,0 %), ga tegishli bo'ldi.

#### IV. METAMA'LUMOTLAR

\*Tovarlar tashqi savdosi statistika ko'rsatkichlarini shakllantirishda, Tashqi iqtisodiy faoliyat tovar nomenklaturasi (TIF TN) bilan birgalikda, BMTning Xalqaro standartlashgan savdo tasniflagichi (XSST) ishlatiladi. Bu o'z navbatida tahliliy maqsadlarda eksport va import qilinadigan tovarlarni 10 ta katta qismga guruhlash uchun imkon beradi. Tovarlarini XSST bo'yicha kodlashtirish, TIF TN va XSST o'rtasida o'tish kalitlari yordamida amalga oshiriladi.

Tashqi savdo statistikasi, tovarlar va xizmatlar tashqi savdosi asosida shakllantiriladi: tovarlar tashqi savdosi statistikasini shakllantirishda dastlabki ma'lumotlar bo'lib, Bojxona qo'mitasining bojxona yuk deklaratsiyasining ma'lumotlari hamda Milliy statistika qo'mitasining rezidentdan norezidentga o'tuvchi, davlat chegarasini kesib o'tiyulgan va bojxona deklaratsiyasida hisobga oliniyulgan tovarlarni statistik kuzatuvlari hisoblanadi; tashqi savdo xizmatlar statistikasini shakllantirish statistika kuzatuvlari asosida amalga oshiriladi.

#### V. ALOQADOR BOSHQA HAVOLALAR

[Tashqi savdo aylanmasi hajmi \(yillik\)](#)

[Tashqi savdo aylanmasining o'sish sur'ati \(yillik\)](#)

[Tashqi savdo aylanmasi hajmi \(mamlakatlar kesimida, yillik\)](#)

[Tashqi savdo aylanmasi o'sish sur'ati \(mamlakatlar kesimida, yillik\)](#)

[Eksport hajmi \(hudular kesimida, yillik\)](#)

[Eksport hajmi \(mamlakatlar kesimida, oylik\)](#)

[Import hajmi \(yillik\)](#)

[Importning o'sish sur'ati \(yillik\)](#)

[Importning o'sish sur'ati \(yillik\)](#)

<b>Chop etishga masul:</b> Xizmatlar va savdo statistikasi bo'limi	<b>Boshqarma boshlig'i:</b> U.Djumanazarov Tel: +998655058000 (8000)	<b>Ijrochi:</b> Z. Saidova Tel: +998655058000 (8040) e-pochta: : <a href="mailto:info@buxstat.uz">info@buxstat.uz</a> <a href="mailto:buxstat@exat.uz">buxstat@exat.uz</a>	<b>Manzil:</b> 100170, Buxoro sh., S.Ayni ko'chasi, 3
---	--	--	--